

**O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINING JADAL
RIVOJLANISHINI TA’MINLASH VA ELEKTRON DAVLAT XIZMATLARINI
KO‘RSATISH MEXANIZMLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISHDA SUN’IY
INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING ROLINI OSHIRISH MASALALARI**

Abdimalikova Saida Safarali qizi

Adliya vazirligi xodimi

Annotatsiya:

Mazkur tezisda O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tizimining jadal rivojlanishini ta’minlash va elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini yanada takomillashtirishda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalalari ikki yo‘nalishda: ularning huquqiy asosi va amaliyotga tatbiq etilishi nuqtai nazaridan tahlil etilgan. Bundan tashqari, sun’iy intellekt yutuqlari foydalanilishi mumkin bo‘lgan tizimlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, Situatsion-tahliliy markaz, ma’lumotlar bazasi, elektron davlat xizmatlari, Hukumatlarning sun’iy intellektga tayyorgarlik indeksi.

Bugungi kunda hayotimizning har bir jabhasida axborot texnologiyalari yutuqlari, shu jumladan, sun’iy intellektdan foydalanishning ahamiyati ortib bormoqda, chunki ulardan foydalanish faoliyat samaradorligini oshirish va vaqt tejash imkoniyatini yaratadi. Shu sababli barcha davlatlarda sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishga hukumat darajasida e’tibor berib kelinmoqda va natijada hukumatlarning bu boradagi reytingi ham shakllanmoqda.

Oxford Insights tomonidan taqdim etiladigan Hukumatlarning sun’iy intellektga tayyorgarlik indeksi (Government Artificial Intelligence Readiness Index)ning 2021-yilgi natijalariga ko‘ra, AQSh texnologiya, uning eng yaxshi hajmi uchun reytingda birinchi o‘rinni egallaydi. Singapur o‘zining institutsional kuchi va hukumatning raqamli imkoniyatlari natijasida ikkinchi o‘rinni egallaydi. Kuchli beshlikdan G‘arbiy Yevropa mamlakatlari (Buyuk Britaniya, Finlyandiya va Niderlandiya) joy olgan. O‘zbekiston 160 mamlakat orasida 93-o‘rinni egalladiⁱ.

Bunday reytinglarda O‘zbekistonning o‘rmini yaxshilash maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Dunyo miqyosida iqtisodiyotning tarkibi keskin o‘zgarib, raqamli va biotexnologiyalar, sun’iy intellekt kabi sohalar shiddat bilan hayotimizdan o‘rin egallamoqda, iqtisodiyot rivojini uskunalar emas, balki zamonaviy bilim va innovatsiyalar belgilamoqda”ⁱⁱ

Zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlanishi ulardan nafaqat biz bilgan ishlab chiqarish va iqtisodiyot tarmoqlarida, balki, ijtimoiy himoya va davlat boshqaruvi kabi sohalarida ham foydalanishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, inson omilini kamaytirish imkonini beruvchi sun’iy

intellekt texnologiyalaridan foydalanish davlat xizmatlarini ko'rsatish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda sun'iy intellekt yutuqlarini davlat boshqaruvi sohasiga joriy etish masalalarini ikki yo'nalishda tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Birinchidan, mamlakatimizda sun'iy intellektni rivojlantirishning normativ-huquqiy asosi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston — 2030" Strategiyasiⁱⁱⁱ qabul qilindi. Ushbu Farmon bilan 2020 — 2022-yillarda hududlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlari, 2020 — 2022-yillarda tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlari va Elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishni yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi PQ-4996-sonli "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida qarori"^{iv} bilan tasdiqlangan 2021-2022-yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarini o'rganish va joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining Sun'iy intellekt texnologiyalarini davlat boshqaruvi tizimida keng qo'llash bo'limida Elektron hukumat va moliyaviy xizmatlar foydalanuvchilarini masofaviy identifikatsiya qilishni joriy qilish uchun normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, ovozli biometriya va inson nutqini tanish texnologik yechimlarini joriy etish, "Sber" guruhi tajribasi asosida tadbirkorlik subyektlari va jismoniy shaxslar uchun raqamli ekotizim yaratish vazifalari belgilangan.

Ikkinchidan, mamlakatimizda sun'iy intellekt yutuqlarini amaliyotga joriy etish maqsadida amalga oshirilgan ishlar.

Ichki ishlar vazirligining Situatsion-tahliliy markazi sun'iy intellekt yutuqlari asosida faoliyat yuritayotgan huquqni muhofaza qiluvchi organlardan biridir. Ichki ishlar organlarining kuch va vositalarini axborot texnologiyalari asosida boshqarishga ixtisoslashgan. Zamonaviy bino qurilib, 554 terrabayt xotiraga ega 18 ta server, katta hajmli kuzatuv ekrani, kompyuterlar bilan jihozlangan. Markazda «102» tizimi, videokuzatuv kameralari, internet va boshqa manbalardan kelib tushayotgan ma'lumotlar avtomatlashgan tarzda yig'iladi va qayta ishlanadi. Qoidabuzarlik avtotransportning davlat raqami yoki shaxsning yuz qiyofasi orqali tezkor aniqlanib, qidiruv tashkil etiladi. Bu tizim sun'iy intellekt yordamida ishlaydi va inson omili minimal darajada. Bular orqali markaz butun mamlakatimizda jamoat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi^v.

Mamlakatlar sun'iy intellekt tayyorgarligini oshirish uchun eng yaxshi strategiyalarni tuzishda yanada faol pozitsiyani egallashlari shart. Bu ularga sektor bilan bog'liq ba'zi yutuqlarni, shu jumladan ish o'rinlarini yaratish, texnologik xodimlarning ko'nglini ko'tarish va intellektual mulk yutuqlarini ta'minlashga imkon beradi. Raj Shekhar mamlakatlarning hamkorligi sun'iy

intellekt tayyorgarligini yuksaltirish tomon potentsial qadam bo'lishi mumkin, deb ta'kidlaydi. Masalan, Hindiston va O'zbekiston hamkorlik Memorandumini imzoladilar, unda Hindiston O'zbekistonga 2020 yilda IT-infratuzilmasi va raqamli ulanishini qo'llab-quvvatlash uchun kredit berdi^{vi}.

O'zbekistonda sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha mutaxassislar bir necha fikrlarni ilgari suradilar. Masalan, Innovatsion rivojlanish vaziri o'rinbosari Azimjon Nazarov esa Prezident va bosh vazir qabulxonalari faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish lozimligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, "agar shu jarayonda sun'iy intellektdan foydalansak, qaysi viloyatda kayfiyat qanaqa ekanini bilishimiz oson bo'ladi. Qaysi hududda masalan, sog'liqni saqlash yo'nalishida muammolar ko'p. Qaysi joyda ta'lim yoki qishloq xo'jaligida kamchiliklar bor. Bularning barchasi inson omilisiz aniqlanadi"^{vii}.

Bunga qarab davlat o'z siyosatini olib borishi yanada yaxshi samara beradi. Bundan faqat to'g'ri ma'noda foydalanish kerak. Ya'ni murojaatga tezda e'tibor berish va kelajakda xalqimizning og'riqli nuqtalarini aniqlab, o'shaning oldini olish choralarini ko'rish lozim "Taraqqiyot strategiyasi" markazi bo'lim boshlig'i Farruh Hakimov esa O'zbekistonda hozirda mavjud ma'lumotlar manbalaridan sun'iy intellekt ma'lumotlar bazasini shakllantirish va ulardan samarali foydalanish mumkin, deb hisoblaydi. Jumladan:

- Identifikatsiyalash yagona tizimi – (id.gov.uz);
- O'zbekiston Respublikasi ochiq ma'lumotlar portali – (data.gov.uz);
- Elektron hukumat tizimi ma'lumotlar bazasi – (my.gov.uz);
- Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi – (davxizmat.uz);
- Turli vazirlik va idoralarning ma'lumotlar bazasi^{viii}.

Ta'kidlash lozimki, sun'iy intellektni rivojlantirishda hukumat harakati ortib borayotgan bir paytda, xususiy sektorda ham texnologiya ham sezilarli darajada o'sadi. Texnologiya va sun'iy intellektdan foydalanuvchi kompaniyalar soni oshadi. Umid qilamizki, hukumatlar ushbu xususiy sektor yutuqlarini, ayniqsa, AI texnologiyalariga asoslangan yangi xizmatlar bilan davlat xizmatlarini yaxshilash uchun qo'llashlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. ⁱ Government AI Readiness Index 2021 <https://www.oxfordinsights.com/government-ai-readinessindex2021#:~:text=Nearly%2040%25%20of%20the%20160,while%209%25%20are%20drafting%20one>.
2. ⁱⁱ Yangi O'zbekiston – inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlatdir. Shavkat Mirziyoyevning Saylovoldi dasturi. <https://uzlidep.uz/news-of-party/10076>
3. ⁱⁱⁱ Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022-y., 06/22/134/0407-son.
4. ^{iv} Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 15.04.2022-y., 07/22/208/0311-son
5. ^v <https://uzreport.news/society/jamoat-xavfsizligini-ta-minlash-bo-yicha-ko-rsatmalar-berildi>

-
6. ^{vi} 1. Government AI Readiness Index 2021
<https://www.oxfordinsights.com/government-ai-readiness-index2021#:~:text=Nearly%2040%25%20of%20the%20160,while%209%25%20are%20drafting%20one.>
 7. ^{vii} <https://kun.uz/uz/news/2020/11/06/davlat-boshqaruvida-suniy-intellekt-nima-uchun-kerak-vazir-orinbosari-tushuntirib-berdi>
 8. ^{viii} Xakimov F. Sun'iy intellekt – to'rtinchi sanoat inqilobining asosi.
<https://strategy.uz/index.php?news=1198&lang=uz>